



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARIDA TEONIMLAR ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARNING IFODALANISH

Xabibullayeva Dilobar Shukurjonovna

FarDU, filologiya fakulteti, ona tili va adabiyoti (rus tili) yo'nalishi 2-kurs talabasi @Shukurjonovna

+99890 781 30 78

Sharafutdinova N

Ilmiy rahbar., FarDU o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek tilida faol qo'llanadigan Xudo, Parvardigor teonimlari madaniy va ma'rifiy aloqalar jarayonida fors-tojik tilidan o'zlashgan. Bunda badiiy adabiyotning hissasi katta o'rin tutadi. Ham og'zaki, ham yozma nutq shakllarida faol qo'llanishining omillaridan biri ham badiiy adabiyot ta'siri, roli va o'rni bilan izohlanadi. Mazkur maqolada fors-tojik tilidan o'zlashgan Xudo teonimining xalq orasida qo'llanish darajasi haqida boradi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi teonimlarning qo'llanishi, ularning ma'naviy-axloqiy vazifasi hamda turkiy va forsiy manbalar bilan bog'liqligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Teonim, Xudo, Parvardigor, Alloh, Tangri, Egam, muqaddas nomlar.

Annotation: The theonyms God, Lord, which are actively used in the Uzbek language, were adopted from the Persian-Tajik language in the process of cultural and educational contacts. The contribution of fiction plays a significant role in this. One of the factors of their active use in both oral and written forms of speech is explained by the influence, role and place of fiction. This article discusses the level of use of the theonym God, adopted from the Persian-Tajik language, among the people. The use of theonyms in Utkir Hoshimov's work "The Works of the World", their spiritual and moral function, and their connection with Turkic and Persian sources are analyzed.

Keywords: Theonym, God, Allah, sacred names.

Teonimlar (grekcha theos — "Xudo", onyma — "ism") tilshunoslikda yaratguvchi nomlarini hamda uning otlashgan sifatlarini anglatuvchi leksemalardir. Ular nafaqat diniy matnlarda, balki badiiy adabiyotda ham ma'naviy mazmun yuklanishini kuchaytiradi. Teonim terminining birinchi qismi "theos" bo'lib, u yunon tilida "Yaratguvchi" ma'nosini ifodalaydi.

O'zbek tilida bu so'zning Tangri, Xudo, Alloh kabi ekvivalentlari mavjud. «Словарь иностранных слов» lug'atida bu so'zning quyidagi terminlar tarkibida kelishi ko'rsatiladi, ya'ni теодицея – бог+дикё – право, справедливость; богооправдание; теократия – бог+ кратос – власть; теология – бог+логос – учение; теософия – бог+софия – мудрость (Словарь иностранных слов, 1979. 502). Теософия termini «Философский энциклопедический словарь»da ham ikki so'zdan iborat termin sifatida (бог и



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

мудрость, богопознание) izohlanadi (Философский энциклопедический словарь, 1983. 680).

Ko'rinadiki, barcha izohlarda "theos" Yaratguvchi ma'nosida beriladi. O'zbek tilida mavjud Tangri, Xudo, Alloh so'zlari yaratguvchi tushunchasini anglatadi. Ana shu asosga ko'ra "teonim" termini Yaratguvchini ifodalaydi, deb belgilanadi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham diniy va ilohiy tushunchalarni ifodalovchi o'z qatlamga mansub so'zlar juda qadimdan boshlab qo'llanib kelingan. Egam, Tangri, Bayat//Bayot, Ug'an//Ug'on kabi teonimlar ana shunday tasavvur va tushunalarni ifodalovchi so'zlar sanaladi.

O'zbek tilida faol qo'llanadigan Xudo, Parvardigor teonimlari madaniy va ma'rifiy aloqalar jarayonida fors-tojik tilidan o'zlashgan. Bunda badiiy adabiyotning hissasi katta o'rin tutadi. Ham og'zaki, ham yozma nutq shakllarida faol qo'llanishining omillaridan biri ham badiiy adabiyot ta'siri, roli va o'rni bilan izohlanadi. O'zbek tilida qo'llanishi bo'yicha Xudo teonimining faollik darajasi va xalq orasida chuqur o'zlashganligini XX asrning boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Mu'in, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy kabi qator dramaturglar tomonidan yozilgan jadid dramasi asarlari ham tasdiqlaydi. Sodda va kichik dramalarda ishtirok etuvchi personajlar ham o'z davriga mos sodda odamlar bo'lgan. Davrning barcha dramalarida eng ko'p qo'llanuvchi teonim Xudo teonimidir. O'zining teonimik ma'nosi bilan alohidalikda Xudo, Xudoyo, Xudoyim, Xudovand shakllari faol qo'llanadi. XX asr adabiyotida ham bu teonimning faol qo'llanganini A.Oripov, E.Vohidov, O'.Hoshimov ijodida ham ko'rish mumkin. Bu kabi teonimlarning o'zbek tilida qo'llanishi faolligi tufayli uning o'zlashgan qatlamga xosligi bilinmay qolgan.

O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek xalqining ma'naviy dunyoqarashi, milliy ruhi va axloqiy qadriyatlarini badiiy talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi asarlarida til va xalq tafakkuri o'rtasidagi uzviy bog'lanish yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, "Dunyoning ishlari" asarida teonimlar, ya'ni yaratguvchi nomlari va ular bilan bog'liq so'zlar tizimi orqali insonning axloqiy, ruhiy va diniy his-tuyg'ulari ifodalanadi.

Asarda teonimlar asosan "Xudo", "Tangri", "Alloh", "Yaratgan" kabi nomlar shaklida qo'llanadi. Ularning qo'llanishi qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va ma'naviy qarashlarini ifoda etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masalan: "Shunda qodir Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi" (O'. Hoshimov, 2016, 7-bet). Bu misolda "Xudo" teonimi xalq og'zaki ijodiga xos qiyos bilan birga ishlatilib, ilohiy jazo muqarrarligi, har qanday yomonlik qodir Xudo tomonidan, albatta, jazolanishi, adolat aynan Yaratgan tomonidan qaror toptirilishi aks ettiradi. "Vahima qilmang, poshsha, dardini bergan Xudo, davosini ham beradi" (O'. Hoshimov, 2016, 15-bet). Bu yerda Xudo teonimi o'zbek xalqiga xos bo'lgan sabr va taqdirga tan berish kabi xarakter xususiyatlarni ifoda etadi. "Bukur bo'lsa, Xudo qilgan! – deydi harsillab. – Tavba deng!" (O'. Hoshimov, 2016.47-bet). Bu misolda teonim Xudoning ishiga qarshi chiqmaslik, taslimlik, U bergan har qanday sinovga ko'nish va taqdirga rozilik ma'nolari anglashiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Ma'lumki, tilda jamiyat hayoti, uning ruhiyati, milliy qadriyatlari, xalq qarashlari, urf-odatlar aks etadi. O'tkir Hoshimov asarlarining badiiy qimmatini, keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'lishi, qayta-qayta sevilib o'qilishining sababi ham shunda. Inson shunday xilqatki, qiyin vaziyatlarga tushib qolganda, boshiga mushkul ishlar tushganda, boshiga malomat toshlari yog'ilganda, ayniqsa, Yaratganga murojaat qila boshlaydi. Teonimlarning qo'llanishi asardagi qahramonlarning turli: tinch va affekt holatlari ularning nutqida turlicha aks etadi. Tinch holatda: iltijo, shukronalik, tavakkal ma'nolari ustun. "Xudoyo umringdan baraka top" (O'. Hoshimov, 2016, 33-bet). "Yaratgan ne'matlariga shukr!" (O'. Hoshimov, 2016, 56-bet). Affekt holatida: qahr, hayrat, qo'rquv yoki hasrat ifodasi kuchaygan bo'ladi. "Urushni qiladilar-ku odamlar, bizda nima gunoh" (O'. Hoshimov, 2016, 61-bet). "Xudo haqqi, bunday masalalarga aralashishni jinimdan yomon ko'raman" (O'. Hoshimov, 2016, 51-bet). Bu kabi holatlarda teonim emotsional kuchlanishni ko'rsatadi va nutqning ekspressivligini oshiradi.

Hozirgi o'zbek tilida o'z qatlamga oid Tangri, Egam (bu so'z asosan yaratgan so'zi bilan bog'lanib keladi) hamda o'zlashgan qatlamga oid teonimlar keng qo'llanmoqda. Fors-tojik tilidan o'zlashgan Xudo, Parvardigor, shuningdek, arab tilidan o'zlashgan Alloh//Olloh teonimlari qo'llanish darajasi ortib ketdi. Keyingi paytlarda Alloh teonimi, ayniqsa, faollashdi. Shunga ko'ra asarda qo'llanilgan teonimlar ham turli til manbalar bilan bog'liq:

- Xudo – fors-tojik tilidan, ma'nosi yaratuvchi.
- Tangri – turkiy til manbasidan, qadimiy ilohiy kuch ramzi.
- Alloh – arab tilidan, islomiy atama sifatida rasmiy teonim.
- Yaratgan – turkiy so'z, Xudoning xalqona sinonimi.

O'tkir Hoshimov bu nomlarni xalq tilidagi tabiiy shaklda ishlatib, milliy so'zlashuv uslubini saqlab qolgan.

Asarda teonimlar orqali inson hayotining ma'naviy mohiyati, sabr-toqat, mehr, tavakkal va taqdirga ishonch g'oyalari ifodalanadi. Yozuvchi ilohiy nomlarni axloqiy mezon sifatida qo'llaydi. Masalan: "Popukday qizlar, nozaninday ayollar, norasida bolalar Xudoga nola qilishibdi. Lekin ularning nolasini Xudoga yetmaydi" (O'. Hoshimov, 2016, 61-bet). Bu misolda teonim orqali yozuvchi inson azobining ilohiy adolat oldidagi ma'nosi haqida fikr yuritadi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida teonimlar nafaqat diniy ma'noni, balki xalqning ma'naviy va axloqiy qiyofasini, ruhiy dunyosidagi nur va soylarni ifodalaydi. Teonimlar orqali yozuvchi insonning taqdirga munosabati, ilohiy kuchga ishonchi va hayotga sabr bilan qarashini ko'rsatadi. Asarda turkiy, arabiy va forsiy qatlamdan kirgan teonimlar mutanosib ishlatilib, xalq tilining jonli uslubi saqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Хошимов, Ў. (2016). Дунёнинг ишлари. Тошкент: Шарқ нашриёти.
- Исломов, Н. (2019). Ўзбек халқ мақолларида теонимлар.
- Раҳмонов, А. (2018). Ўзбек тилида диний лексика: тизим ва маъно масалалари.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Турсунов, У. (2005). Туркий тилларда теонимлар тарихи ва семантикаси. Тошкент: Фан.

Словарь иностранных слов. (1979). Москва: Русский язык, 502.

Йўлдошева, М. (2020). Бадиий матнда теонимларнинг услубий вазифаси. Филология фанлари журналы, 2-сон,

Философский энциклопедический словарь. (1983). Москва: Советская энциклопедия, 689.